

mustahkamlandi, ammo investor bazasini kengaytirish, shaffoflikni kuchaytirish va moliyaviy savodxonlikni oshirish zarurati saqlanib qolmoqda. Shu bilan birga, bozor yangi sifat bosqichiga ko'tarilmoqda va kapital bozorining barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. (2025). Qimmatli qog'ozlar bozorining 2025-yil yanvar–sentyabr holati. Toshkent. https://tanga.uz/news/570?utm_source

2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). Kapital bozorining rivojlanishi va likvidlik tahlili. Toshkent. https://www.uzdaily.uz/en/uzbekistans-securities-market-grows-nearly-70-fold-in-june-trading-volume-hits-479-trillion-soums/?utm_source

3. Karimov, A. (2024). Investitsiya va moliyaviy savodxonlik. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti. https://invexi.org/en/press/development-of-the-capital-market-and-banking-system-new-instruments-and-international-standards/?utm_source

4. Rasulov, D. (2023). Banklar va qimmatli qog'ozlar bozori: nazariya va amaliyot. Toshkent. https://vaqt.uz/mobile/news/uzbekiston-kapital-bozoriga-1-mlrd-investitsiya-jalb-etish-rejasi-tasdiqlandi-15818?utm_source

5. O'zbekiston banklari sof foydasi to'g'risidagi tahlillar <https://www.tashkenttimes.uz/finances/14554-uzbek-banks-s-net-profit-in-sharp-decline-over-the-year>

6. Yagona korporativ ma'lumotlar portali (Openinfo.uz) <https://openinfo.uz/en/reports/21271/>

АЛЬТЕРНАТИВ МОЛИЯ ЭКОТИЗИМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА РАҚАМЛИ ВАЛЮТАНИНГ (МБРВ) ХАЛҚАРО ТЎЛОВЛАРНИ ОПТИМАЛЛАШТИРИШДАГИ ЎРНИ

Ташматова Рано Гаубовна

*Тошкент давлат иқтисодийет университети,
“Молия ва молиявий технологиялар” кафедраси доценти*

Марказий Банк рақамли валютаси (МБРВ) – бу Марказий Банк томонидан чиқарилган ва унинг мажбуриятлари ҳисобланган рақамли пул шакли. Бу технологиянинг жорий қилиниши, айниқса, халқаро тўловлар тизимини тубдан яхшилаш ва оптималлаштириш учун катта имконият яратади. МБРВнинг халқаро тўловларни амалга оширишдаги асосий

муаммоларни ҳал қилишдаги ўрни ва унинг имкониятларини таҳлил қилиб урганиш ва муаммоларга ечим топиш долзарб ҳисобланади.²⁵⁵

Марказий Банк рақамли валютасининг (МБРВ) халқаро тўловларни оптималлаштириш амалий мисолини SWIFT тизимидаги юқори харажатлар ва МБРВ ечими доирасида куриб чикамиз.

Анъанавий халқаро пул ўтказмалари (масалан, SWIFT орқали) ўртача 5-10% гача комиссияга эга бўлиши мумкин, айниқса ривожланаётган мамлакатларга кичик миқдордаги ўтказмаларда. Бунга корреспондент банкларнинг ажратилган ликвидлилик талаблари ва операцион харажатлари сабаб бўлади.

МБРВнинг амалий ечими:

1) Қисқарган занжир - МБРВ (айниқса, унинг улгуржи шакли) тўғридан-тўғри Марказий Банклар ўртасидаги ҳисоб-китобга имкон беради, корреспондент банклар занжирини бекор қилади.

2) Натижа - транзакция харажатлари деярли нолгача пасаяди ёки фақат минимал техник тўловлар миқдорида бўлади.

Амалий тасдиқ - Project Icebreaker (Норвегия, Швеция, Исроил) лойиҳаси улгуржи МБРВ ёрдамида халқаро тўловларнинг харажатини ва вақтини қисқартириш бўйича муваффақиятли синовларни ўтказди.

Яна бир амалий мисолда тезлик ва ҳисоб-китоб хавфини камайтиришни куриб чикамиз. Анъанавий трансчегаравий тўловлар одатда 1-5 иш куни талаб қилади (айниқса, дам олиш кунлари ва турли юрисдикциялардаги операцион вақт фарқлари сабабли). Бу вақт оралиғида контрагент хавфи (ҳисоб-китоб яқунланмасидан олдин томонлардан бирининг мажбуриятларини бажара олмаслик хавфи) юзага келади.

МБРВнинг амалий ечими:

1) DLT (Тақсимланган Реестр Технологияси) асосида - МБРВ асосан DLT платформаларида қурилади, бу эса 24/7/365 режимда ишлаш ва ҳисоб-китобларни деярли бир зумда яқунлаш имконини беради.

2) PvP (Тўловга қарши Тўлов) механизми - Project mBridge (Хитой, Гонконг, Таиланд, БАА, Халқаро Ҳисоб-китоблар Банки – BIS) лойиҳасида ишлатилганидек, МБРВ томонларга ўз валюталарини бир вақтнинг ўзида алмашишга имкон беради.

Натижада - Ҳисоб-китоб вақти сонияларга қисқаради ва контрагент хавфи бутунлай йўқ қилинади, чунки томонлар тўловни фақат бошқа томон ҳам бир вақтда бажаргандагина амалга оширади.

²⁵⁵https://cbu.uz/upload/medialibrary/903/qluprtyqysmlbntf6nrdo1n4u3zg1km/Asosiy-y_nalishlar-2025_2027-_Kontseptual-loyi_a.pdf

МБРВнинг оптималлаштиришдаги асосий механизмларига эътибор қаратамиз. МБРВ, айниқса, унинг улгуржи (wholesale) шакли халқаро тўловларни қуйидаги йўллар билан оптималлаштиради:

1) Тўғридан-тўғри ҳисоб-китоб (P2P). МБРВ тўғридан-тўғри Марказий Банк мажбурияти сифатида воситачилар занжирини (кўп сонли корреспондент банкларни) йўқ қилади ёки қисқартиради. Бу харажатларни кескин камайтиради ва шаффофликни оширади.

2) Бир зумда (Real-time) ҳисоб-китоб. Блокчейн ёки тақсимланган реестр технологияси (DLT) асосидаги МБРВ ҳисоб-китобларни реал вақт режимида амалга оширишга имкон беради, тўлов тезлигини оширади.

3) Чекланган хавф. МБРВни бир нечта юрисдикциялар бўйича интеграциялаш (масалан, кўп валютали МБРВ платформалари орқали) контрагент хавфини ва ҳисоб-китоб хавфини минималлаштиради.

4) Ликвидлилик. Ҳисоб-китоблар учун олдиндан маблағ ажратиш зарурияти камаюди, чунки МБРВ билан транзакциялар пул ўтказиш билан бир вақтда амалга оширилади (Delivery versus Payment – DvP, ёки Payment versus Payment – PvP).

Халқаро тўловларни оптималлаштириш учун асосан иккита МБРВ модели таклиф этилмоқда:

1) Боғланган МБРВ (Interlinked CBDCs). Турли мамлакатларнинг миллий МБРВ тизимларини ўзаро боғлаш.

2) Умумий МБРВ Платформаси (Single/Shared Platform). Бир нечта Марказий Банклар томонидан бир вақтда фойдаланиладиган умумий халқаро тўлов платформасини яратиш (масалан, Project mBridge каби лойиҳалар). Бу модел энг юқори самарадорлик ва энг паст харажатларни таклиф қилади.

Хулоса. Марказий банк рақамли валютаси халқаро тўлов тизимларини арзонроқ, тезроқ, шаффофроқ ва хавфсизроқ қилиш учун муҳим ва ўзгартирувчи воситадир. МБРВнинг халқаро ҳамкорлик доирасидаги жорий этилиши глобал молиявий инфратузилмани модернизация қилишда ва иқтисодий интеграцияни чуқурлаштиришда ҳал қилувчи роль ўйнайди. МБРВ халқаро тўловлардаги воситачилар занжирини қисқартириш орқали харажатларни камайтиради. У реал вақтда ҳисоб-китоб қилиш имконияти туфайли тезликни кескин оширади. Умумий МБРВ платформалари контрагент ва ликвидлилик хавфини минималлаштиришда энг самарали ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар руйхати:

1.Ўзбекистон Республикасининг 11.11.2019 йил ЎРҚ-582-сонли “Ўзбекистон Республикаси Марказий банки тўғрисида”ги Қонуни

2. "Пул-кредит сиёсатининг 2025 йил ва 2026-2027 йиллар даврига мўлжалланган асосий йўналишлари", Ўзбекистон Республикаси Марказий банки, Пул-кредит сиёсати департаменти электрон нашри. Тошкент. - 2024й.

DUAL MOLIYA TIZIMI ORQALI AHOLINING BO'SH JAMG'ARMALARINI KAPITAL BOZORIGA JALB ETISH ISTIQBOLLARI

F.K Sindarov

TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy- tadqiqot markazi kichik ilmiy xodimi, O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi katta o'qituvchisi

O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning hozirgi bosqichida iqtisodiyotni liberallashtirish, xususiy sektor rolini oshirish va global moliya bozorlariga integratsiyalashuvga qaratilgan chuqur tarkibiy islohotlar olib bormoqda. "O'zbekiston-2030" strategiyasini amalga oshirish doirasidagi eng murakkab va ayni paytda istiqbolli vazifalardan biri aholining norasmiy jamg'armalarini investitsiyalarga samarali aylantira oladigan raqobatbardosh moliya bozorini yaratishdir. Bunda an'anaviy bank xizmatlarini muqobil islomiy moliya instrumentlari bilan integratsiyalashgan milliy dualistik moliya tizimi modelini ishlab chiqish va joriy etish iqtisodiy o'sish va moliyaviy inklyuzivlikning asosiy drayveri bo'lib xizmat qiladi.

"Dualistik moliya tizimi — bu an'anaviy (foiz stavkalariga asoslangan) va muqobil (foyda va zararni bo'lishish tamoyillariga asoslangan, ribo va spekulyativ operatsiyalardan xoli) moliya institutlari parallel ravishda va teng huquqiy sharoitlarda faoliyat ko'rsatadigan institutsional muhitdir".²⁵⁶ O'zbekiston uchun bunday modelga o'tish shunchaki "bank mahsulotlari assortimentini kengaytirish emas, balki iqtisodiyotning potentsial resurslari va bank depozitlarining real hajmi o'rtasidagi katta uzilishni bartaraf etishga qaratilgan kapitalni boshqarishning fundamental asosi ham hisoblanadi".²⁵⁷

2017-yilda boshlangan islohotlar valyuta bozori va bank sektorini sezilarli darajada liberallashtirdi, biroq "ishlamayotgan" pullar bank tizimidan tashqarida (yostiq ostida) saqlanayotgan naqd mablag'larning ulkan hajmi muammosi hamon dolzarbligicha qolmoqda. "Dualistik tizimning shakllantirilishi aholining

²⁵⁶ Khatat, M.E.H. (2016) Monetary policy in the presence of Islamic banking. IMF Working Paper, WP/16/72. Washington, DC: International Monetary Fund, March.

²⁵⁷ Benyamina, N. (2024) 'Financial dualism between Islamic and conventional finance: complementarity and contribution to sustainable and inclusive financing', Review MECAS (Algerian Scientific Journal Platform), 20(2), December.